

Xitoy manbalaridagi turkiy xalqlar tarixiga oid ma'lumotlarning o'rganilishiga doir

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti II kurs
magistranti Ishimmetov G'ayrat Pulatbayevich

Annotatsiya

Mazkur maqola Xitoy manbalaridagi turkiy xalqlar tarixiga oid ma'lumotlarning o'rganilishiga doir deb nomlangan bo'lib, "Shunday qilib, quyida nomlari keltiriladigan qadimgi xitoy yozma manbalariga ko'ra, shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy chegaralarida mil.avv. III-II ming yilliklar davomida "xu", "dingling(tingling)", "tele(chele/chile)", "di", "hunn" nomlari ostida chorvador qabilalar jamoalari yashashgan. Bular aslida "hu" avlodlaridir.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar qadimgi Xitoy manbalarida ham ko'plab yoritilgan. Mazkur manbalarni o'rganish va tarjima qilish bilan bog'liq keng ko'lamli izlanishlar XIX asr o'rtalaridan boshlangan bo'lib, bu davrda ko'plab xitoyshunoslar asosan o'rta asrlar doirasida Markaziy Osiyo tarixini o'rganishga e'tibor qaratdilar. Yirik olimlar shu munosabat bilan birlamchi manba tarjimasini davom ettirdilar. Masalan, S.Bill, X. Jayls va J.Leggilar Fa Syaning yozuvlari tarjimasiga o'zlarining variantlarini taqdim etdilar. S. Jyulen va Bill Syuan-Szanning xotiralarini¹ tarjima qildilar. Bundan tashqari, S. Jyulen turklar va uyg'urlarga oid ma'lumotlarni ham tarjima qildi. Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarning o'rganilishi Markaziy Osiyoning qadimiy va o'rta asrlar tarixining noma'lum sahifalarini ochdi. bu borada Yevropada eng ko'p mashhurlikni 12 tomlik J. Mayya, K. Vissdelu va boshqalarning ishlari oldi. Ularning sharofati bilan G'arb

¹ Боровкова. Л.А. Царства «западного края» во II-I веках до н.э (Восточный Туркестан и Средняя Азия по сведениям из «Ши цзи» и «Хань шу». Москва.: 2001, стр-18

ilmiy olami qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyoning muhim voqealari va o'zaro aloqalari bilan tanishdi.²

XIX asr boshlarida o'zlarini professional xitoyshunoslar deb e'lon qilgan va ko'pchilikka tanish bo'lgan A.Remyuza (1788-1832) va Yu. Klaprot (1783-1835)lar ham o'z ishlarini nashr qildilar. Garchi ular qadimgi Xitoy manbalarining to'ldirilgan nusxalaridan foydalangan bo'lsalarda, umumiy tarixning alohida jihatlarini ko'rib chiqishga, faqat tarix emas, balki Markaziy Osiyoning tarixiy geografiyasi va etnologiyasi to'g'risida ham yozishga harakat qildilar. Bundan tashqari, ular eng qadimgi, birlamchi manbalarga o'z e'tiborini qaratdilar. A.Remyuza tadqiqotlarining asosiy obekti - Xo'tan tarixi bilan bog'liq bo'lib, u qadimiyatdan to Sin davrigacha Xitoyning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarini o'rgandi.

Klaprot ishining asosini esa qadimgi turkiy yozuvlar tashkil qildi. U birinchi bo'lib, uyg'ur yozuvining turkiyligi to'g'risida yozdi. A. Remyuza va Yu. Klaprotning Markaziy Osiyo tarixini o'rganishning qadimgi xitoy manbalariga asoslanishi, shu bilan birga alohida isbot va muhim jihatlarini tavsiflash, o'sha davrga muvofiq bo'lgan geografiya va etnologiyani o'rganishning yangi yo'nalishini boshlab berdi.³

Keyinchalik ko'plab batafsil ma'lumotlar mashhur xitoyshunos olim N.Ya. Bichurinning mehnatlari orqali aniq bo'ldi. 1828-yili uning birinchi kitobi "Записки о Монголии" va "Описание Тибета в нынешнем его состоянии" nomlari ostida nashr qilindi. U umumiy hisobda turli davrlarda yozilgan xitoy manbalari asosida Xitoy va Markaziy Osiyo tarixining qadimiyatdan to hozirigacha bo'lgan davriga oid 15 ta kitob chop ettirgan.⁴ Biroq, olimning 1851 yili e'lon qilingan "Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена" asari ko'proq mashhur bo'ldi⁵. Olim unda birinchi marta ilmiy jamoatchilikka nafaqat

² В Боровкова. Л.А. Ко'rsatilgan asar: стр-14

³ Боровкова. Л.А. Царства «Западного края» во II-I веках до н.э (Восточный Туркестан и Средняя Азия по сведениям из «Ши цзи» и «Хань шу». М.: 2001, С.15

⁴ Боровкова. Л.А. Ко'rsatilgan asar: стр-16

⁵ Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. – С. 292, 319; Яна қаранг: Chavannes E. Documents sur les... – P. 149; Таşağıл А. Gök-Türkler. II... – S. 97; Малявкин А. Г. Танские хроники... – С. 87, 282; Исхоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар... – Б. 27-28; История ат-Табари... – С. 127, 129, 256–258; Davary D. G. Baktrisch ein Wörterbuch... – S. 100, 170–171, 287; Sims-Williams N.

Markaziy Osiyo balki, Sharqiy Turkiston xalqlarining mil.avv II asridan VII asrgacha gacha bo'lgan batafsil tarixini taqdim qildi. Uning ishlari 1950-1953 yillar yana qayta chop etildi.

N.Ya. Bichurin o'zining tarjimalariga qisqacha izohlardan tashqari, "tarixiy to'ldirishlar" bergan, shuningdek, bir qancha xalqlarning etnik kelib chiqishga doir kichik tadqiqotlar olib borgan.⁶ Bundan tashqari, u "Карты к истории народов, обитавших в Средней Азии в древние времена" va "Географический указатель мест на карте к истории среднеазиатских народов" asarlarini tuzdi.

Bu ko'rsatkichda u, ko'plab tarixiy-jo'g'rofiy hududlarning qisqacha joylashuvini ko'rsatgan, ammo uning davrida hududlarning joylashuvini deyarli aniq bo'lmay, ko'rgazma tarzida obyektlarning joylashuvi-lokalizatsiyasini keltiradi.

Olimning asarlariga tayanib aytish mumkinki, mashhur rus xitoyshunosi N.Ya. Bichurin xunn, turk va uyg'urlarning mog'ullardan kelib chiqqanlik farazi tarafdori bo'lsada, uning xitoy matnlaridagi Xitoy bilan qadimda va o'rta asrlarda qo'shnichilikda yashagan xalqlar tog'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdagi hissasi juda qadrli.⁷ Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'z davrida uning «Собрание сведений о народах, обитавших в древности в Средней Азии»(1851y.) kitobi ilmiy xitoyshunoslik uchun katta ahamiyat kasb etdi. N.Ya. Bichurin o'zining kitobida, xitoy ma'lumotlarida qadimgi xalqlar, jumladan, Markaziy Osiyoning o'troq va ko'chmanchi xalqlari to'g'risidagi ma'lumotlari juda ahamiyatli.⁸

Xitoyshunos bo'lmagan olimlar tomonidan boshqa tarixiy manbalar asosida, shuningdek, xitoy manbalaridan ham foydalangan holda yozilgan qadimgi tarix va tarixiy-jo'grofiyaga oid bir qancha ishlar paydo bo'lganki, ulardan G.Yul, V.V. Grigoriyev va N. A. Aristovlarning ishlari ko'plab shuhrat qozondi. V.V. Grigoriyev ancha vaqt tarix uchun qo'llanma vazifasini o'tagan, qadimgi xitoy, hind va boshqa antik davr manbalari asosida Sharqiy Turkistonning qadimgi tarixini yozdi.

Bactrian Documents from... – P. 74, 82, 88; Şeşen R. İslam Coğrafyacılarına göre Türkler ve Türk ülkeleri. – Ankara, TTK, 2001. – S. 186, 188.

⁶ Боровкова. Л.А. Ко'rsatilgan asar: стр-18

⁷ Камалав А.К «Тюрки и иранцы в Танской империи (618-907 гг.)», - Алмата.:2008, стр-16

⁸ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Т: I.– М.- Л.: Наука, 1950. – С. 283; Яна қаранг: Таşağıл А. Gök-Türkler. – Ankara, 1995. – S. 92.

N.A Aristovning “Этнические отношения на Памире и приамарских странах по древним, преимущественно китайским, источникам” asari xalqlarning etnik masalasi, tarixiy-joʻgʻrofiy hududlar yechimlarini oʻzida aks ettirgan jiddiy tadqiqot hisoblanadi. U mazkur tadqiqotni Bichurinning “Shi szi”, “Xan shu” va “Xou xan shu”, va boshqalarning joʻgʻrofiy hududlariga oid boʻlgan tarjimalariga asoslangan holda, uni gʻoyatda sinchkovlik bilan tadqiq qildi. Uning kuzatuvlari va baʼzi xulosalari hozirgacha oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Oʻtgan asrning 60-70 yillari gʻarbiy oʻlkalar tarixi toʻgʻrisida xitoyshunoslik ishlari koʻpaydi. Uzoq muddatli tanaffusdan keyin, qadimgi manbalarining yangi tarjimalari paydo boʻldi. Bu davrda R.V. Vyatkin “Shi szi”ni birinchi 12 boʻlimi tarjimalarini nashr qildilar, shundan keyin u Sima Syanning asarlari tarjimasini nashr qila boshladi.⁹ Bu davrda usun, yuechji qabilalarning tarixi, etnik kelib chiqishi, birinchi oʻrnashgan joyi va keyingi migratsiya jarayonlari toʻgʻrisida¹⁰ ham Gʻarbiy Yevropada koʻplab asarlar yaratildi. Bu yillarda xitoyshunoslar Markaziy Osiyoning qadimgi tarixiga asosiy diqqat eʼtiborlarini qaratdilar.

Keyingi yillarda ham bunday tadqiqotlar koʻplab amalga oshirildi. A.G Malyavkin¹¹ning 1989 yilda chop etilgan monografiyasi Markaziy Osiyoning VII-VIII asrlar tarixi va tarixiy geografiyasiga bagʻishlangan. Tadqiqot ishida mavzuga taalluqli sulolaviy yilnomalar va matnlardan foydalanildi. Bu esa Tan imperiyasining gʻarbiy hududlardagi qoʻshnilari bilan aloqalari va gʻarbga boʻlgan taʼsirini aniqlashtirishga yordam berdi.

L. A Borovkova tomonidan xitoy sulolaviy yilnomalariga asoslanib, 1989 yil chop etilgan¹² tadqiqot ishidagi maʼlumotlar, mil.avv II - milodiy VII asrlarda Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda, shuningdek Amur boʻyidagi turli davrlarda mavjud boʻlgan davlatlar lokalizatsiyasiga bagʻishlangan.

⁹ Боровкова. Л.А. Царства «западного края» во II-I веках до н.э (Восточный Туркестан и Средняя Азия по сведениям из «Ши цзи» и «Хань шу». Москва.: 2001, стр-27

¹⁰ Боровкова. Л.А. Коʻrsatilgan asar: стр-28-29

¹¹ Малявкин. А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука. Сиб. Отд-ине, 1989.-432 с

¹² Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до. н. э.- VII в. Н. э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам).-М.:Наука..1989.-181 с.

Nabidjon Tursunning 1998-yil chop etilgan monografiyasida¹³ birinchi marta uyg'urlar tarixiga oid ilk noma'lum xitoy matnlari tizimlashtiriladi va tahlil qilinadi. Muallif tadqiqotda XX asrda nashr etilgan Sharqiy Turkiston uyg'urlar tarixiga oid xitoy tarixchilarining o'rganilgan ishlarini chuqur tahlil qilgan. Muallif shuningdek, tadqiqotda qoraxoniylar tarixi o'rganilishi masalasini ham ko'rib chiqqan.

Mashhur Xitoyshunos olim A.Xo'jayevning ham bu boradagi ishlari diqqatga loyiq. Olimning asarlarida qadimgi turkiy xalqlar tarixi va shakllanishi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Uning o'z tadqiqotlariga asoslanib yozishicha, manbalarda qo'llangan "xu" va "xulu" turkiycha "hur" atamasining xitoycha talaffuzidir. Xitoy tilida "r" undoshi talaffuz etilmasligi sababli iyeroglif bilan ifodalashda "hur" atamasi "hu" shaklda yozilgan. Oriylardagi jangovorlik ruhiyat, chapdast suvoriylik xususiyati, xuddi shu "xur", ya'ni xunlarga ham xos bo'lgan. Ushbu aytilganlardan kelib chiqib, akademik A. Asqarov quyidagicha xulosaga kelgan: "Shunday qilib, yuqorida nomlari keltirilgan qadimgi xitoy yozma manbalariga ko'ra, shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy chegaralarida mil.avv. III-II ming yilliklar davomida "xu", "dingling(tingling)", "tele(chele/chile)", "di", "hunn" nomlari ostida chorvador qabilalar jamoalari yashashgan. Bular aslida "hu" avlodlaridir¹⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi.-T.: "Universitet" 2007
2. Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до. н. э.- VII в. Н. э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам).- М.:Наука..1989.
3. Боровкова. Л.А. Царства «западного края» во II-I веках до н.э (Восточный Туркестан и Средняя Азия по сведениям из «Ши цзи» и «Хань шу». Москва.: 2001.
4. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Т: I.– М.- Л.: Наука, 1950.

¹³ Nabidjon Tursun. Вопросы политической истории уйгуров в Китайской историографии.- М.:1998.-170с

¹⁴ Asqarov A. O'zbek xalqining enogenezi va etnik tarixi, 203-b.

5. Isoqov M., Otaxo'jayev A. Qadimgi yozma yodgorliklar. - T.: "Yozuvchi", 2000. Историја ат-Табари...
6. Камалав А.К. «Тюрки и иранцы в Танской империи (618-907 гг.)», - Алматы.: 2008.
7. Малявкин. А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука. Сиб. Отд-ине, 1989.
8. Набиджон Турсун. Вопросы политической истории уйгуров в Китайской историографии. - М.: 1998.
9. Sims-Williams N. Turks and other peoples in the Bactrian documents // – Istanbul, 2011.
10. Şeşen R. İslam Coğrafyacılarına göre Türkler ve Türk ülkeleri. – Ankara, TTK, 2001.
11. Taşağıl A. Gök-Türkler. – Ankara, 1995.